

**GO'RI AMIR MAQBARASINING ME'MORIY XUSUSIYATLARI VA
JAHON MADANIY MEROSIDAGI O'RNI**

Abduraxmonova Muslimaxon Fazlitdin kizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

abdurakhmonovamuslimakhon@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada Go'ri Amir maqbarasining o'ziga xos me'moriy xususiyatlari, tarixiy ahamiyati va jahon miqyosidagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Maqbara Amir Temur va uning avlodlari uchun qurilgan bo'lib, nafaqat siyosiy va diniy ahamiyatga, balki madaniy va estetik qiymatga ham ega muqaddas maskandir.*

Kalit so'zlar: *Go'ri Amir maqbarasi, Amir Temur, Temuriylar me'morchiligi, islomiy san'at, me'moriy meros, tarixiy yodgorlik.*

АННОТАЦИЯ: *В этой статье рассматриваются уникальные архитектурные особенности, историческое значение и мировое значение мавзолея Гури Амира. Мавзолей был построен для Амира Темура и его потомков и является священным местом, имеющим не только политическое и религиозное значение, но и культурную и эстетическую ценность.*

Ключевые слова: *Мавзолей Гури Амира, Amir Temur, архитектура Тимуридов, исламское искусство, архитектурное наследие, исторический памятник.*

ABSTRACT: *This article discusses the unique architectural features, historical significance and global significance of the Guri Amir Mausoleum. The mausoleum was built for Amir Temur and his descendants and is a sacred place of not only political and religious significance, but also cultural and aesthetic value.*

Keywords: *Guri Amir Mausoleum, Amir Temur, Timurid architecture, Islamic art, architectural heritage, historical monument.*



KIRISH

Go‘ri Amir maqbarasi – o‘zbek me‘morchiligining durdonalaridan biri bo‘lib, Temuriylar saltanati davrida, 1404-yilda qurilishi boshlangan. Dastlab ushbu yodgorlik Amir Temurning sevimli nabirasi, yirik sarkarda va davlat arbobi bo‘lgan Muhammad Sulton uchun mo‘ljallangan edi. Muhammad Sulton yoshligidanoq harbiy salohiyati, siyosiy yetakchiligi bilan ajralib turgan bo‘lsa-da, kutilmaganda vafot etadi. Shundan so‘ng, Temur unga bag‘ishlab Samarqandda muhtasham maqbara qurdirishga qaror qiladi.

Temur aslida o‘zining tug‘ilgan shahri Shahrisabzda o‘zi uchun maqbara qurdirmoqchi bo‘lgan. Biroq, 1405-yilda O‘trarda vafot etganida, yomon ob-havo sharoiti va boshqa texnik sabablarga ko‘ra uning jasadi Shahrisabzga emas, Samarqandga olib kelingan va Muhammad Sulton maqbarasida dafn etilgan. Shu tariqa Go‘ri Amir maqbarasi nafaqat nabirasining, balki Temurning o‘zi, uning farzandlari va avlodlari ham dafn etilgan muqaddas joyga aylangan.

Go‘ri Amir maqbarasi murakkab m‘moriy ansambl sifatida tashkil etilgan bo‘lib, u bir nechta asosiy qismlardan iborat: xonaqoh (xitoychada “哈纳卡”), madrasa (“经学院”), maqbara (“陵墓”), minora (“宣礼塔”), peshtoq (“门廊”), gumbaz (“穹顶”) va turli bezak elementlari (“花饰”). Ushbu atamalarning xitoy tilida berilishi yodgorlikni xalqaro ilmiy muomalaga olib kirish, uni butunjahon madaniy meros sifatida keng targ‘ib etishga xizmat qiladi.

Maqbaraning gumbazi alohida e‘tiborga loyiq – u o‘zining ulkan va baland ko‘rinishi bilan ajralib turadi. Gumbaz tashqi tomondan ko‘k, yashil va oltin rangdagi koshinlar bilan bezatilgan. Bu bezaklar arabesk, islomiy yozuvlar va murakkab geometrik naqshlar bilan mujassam bo‘lgan. Ichki qismda esa, marmar va nefritdan yasalgan qabrtoshlar joylashgan bo‘lib, bu yerda Temur, uning o‘g‘illari Shohrux va Mironshoh, nabiralari Ulug‘bek va Muhammad Sulton, shuningdek, ma‘naviy ustoz Said Baraka dafn etilgan.

Go‘ri Amir maqbarasi Temuriylar davrida shakllangan o‘ziga xos me‘moriy maktabning eng yorqin namunalaridan biridir. Bu maktabda o‘zbek,



fors va turk me'moriy an'analari uyg'unlashgan holda, yuksak estetik mezonlar asosida obidalar bunyod etilgan. Aynan Go'ri Amirning gumbazi, peshtog'i, naqshlari va umumiy rejalashtiruvi keyinchalik Boburiylar davridagi Hindiston me'morchiligiga katta ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, Dehlidagi Humoyun maqbarasi va Agradagi Toj Mahal ana shu Go'ri Amir me'moriy yechimlarining davomi sifatida namoyon bo'ladi.

Go'ri Amir maqbarasining naqshlarida islomiy san'atga xos bo'lgan muqarnas, stalaktitlar, kufiy yozuvlar, arabesklardan foydalanilgan. Ayniqsa, ichki devorlardagi naqshlar oltin suvi bilan ishlangan bo'lib, bu bezaklar yuksak hunarmandchilik namunasi sifatida qadrlanadi.

Sovet davrida va mustaqillikdan so'ng Go'ri Amir maqbarasida keng qamrovli restavratsiya ishlari amalga oshirildi. 20-asrning o'rtalaridan boshlab, bu obidaning tarixiy ko'rinishini saqlab qolish maqsadida mahalliy va xorijiy mutaxassislar jalb qilindi. Maqbara qismi, ayniqsa gumbaz va peshtoqning koshinlari, yozuvlari zamonaviy texnologiyalar yordamida restavratsiya qilindi. Bu bilan nafaqat uning estetik qiyofasi tiklandi, balki yodgorlikning arxitektura tarixidagi ahamiyati ham yanada mustahkamlandi. Bugungi kunda Go'ri Amir maqbarasi O'zbekistonning eng mashhur tarixiy obidalaridan biri hisoblanadi. U nafaqat mahalliy, balki chet ellik sayyohlar orasida ham katta qiziqish uyg'otadi. Ushbu maqbara xalqaro turizm maromida muhim obida sifatida targ'ib etilmoqda. Virtual ekskursiyalar, 3D modellashtirish va AR texnologiyalari orqali dunyo bo'ylab sayyohlar ushbu maqbara bilan tanishmoqda. Xalqaro ko'rgazmalar, madaniy forumlar va akademik tadqiqotlarda Go'ri Amir maqbarasining tarixiy va me'moriy ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Bu esa uning O'zbekistonning madaniy diplomatiyasi vositasi sifatidagi rolini mustahkamlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Go'ri Amir maqbarasi – nafaqat Amir Temurning siyosiy qudratini, balki Temuriylar sulolasining me'moriy yuksakligini ham aks ettiruvchi yodgorlikdir. Uning gumbazi, naqshlari, umumiy tuzilmasi va tarixiy



konteksti jahon madaniy merosining ajralmas qismiga aylangan. Bugungi kunda bu maqbara O'zbekistonning milliy xotirasi, tarixiy o'zligi va xalqaro nufuzini mustahkamlovchi muhim obyekt sifatida qadrlanadi.

Shu bois, Go'ri Amir maqbarasini o'rganish, uni asrab-avaylash va dunyo miqyosida targ'ib qilish har bir fuqaromizning tarixiy mas'uliyatiga kiradi. Bu obida orqali biz nafaqat buyuk o'tmishimizni anglaymiz, balki kelajak avlodlar uchun milliy g'urur va yuksak madaniyat ramzini saqlab qolamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azamatov, A. (2001). Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
2. Karimov, I. (1996). Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: "Ma'naviyat" nashriyoti.
3. Gulyamov, Ya.G. (1972). Go'ri Amir – Temur maqbarasi. Toshkent: "Me'mor" nashriyoti.
4. UNESCO World Heritage Centre. (n.d.). Samarkand – Crossroad of Cultures. Retrieved from <https://whc.unesco.org>
5. Blair, S., & Bloom, J. (1995). The Art and Architecture of Islam 1250–1800. Yale University Press.
6. Allworth, E. (1990). The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present. Stanford University Press.
7. Abdullaev, Z. (2012). Temuriylar me'moriy maktabining shakllanishi. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 6-jild.
8. Gulyamov, M. (2018). Go'ri Amir maqbarasining zamonaviy restavratsiya ishlari. "O'zbekistonda me'morchilik tarixi" jurnali, №2.